**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

**“TASDIQLAYMAN”**
_______________
Sh. Sirojiddinov

202___ -yil
“___”___________

**“KELISHILDI”**
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
_______________________
202___ -yil
“_____”__________

Ro‘yxatga olindi:
№BD-______________
202__-yil “___”____

# ONA TILINI O‘QITISH METODIKASI

## FANI DASTURI

**Bilim sohasi:** 100000 – Gumanitar soha

**Ta’lim sohasi:** 110000 – Pedagogika

**Ta’lim yo‘nalishi:** 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti

лойиҳа

| Fan/modul kodi<br>300.4OTM14M | O‘quv yili<br>2020-2021 | Semestr<br>5, 6, 7 | ECTS - Kreditlar<br>5, 4, 5 |
|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | **Ta’lim tili**<br>O‘zbek | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4, 4, 4 |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (180 soat) | Mustaqil ta’lim (240 soat) | Jami yuklama (420 soat) |
|---|---|---|---|---|
| . | **Ona tilini o‘qitish metodikasi (1-modul. Ona tilini o‘qitishning umumiy masalalari)** | 60 | 80 | 140 |
| | **Ona tilini o‘qitish metodikasi (2-modul. Ona tili bo‘limlarini o‘qitish orqali nutq o‘stirish metodikasi)** | 60 | 80 | 140 |
| | **Ona tilini o‘qitish metodikasi (3-modul. Ona tili darslarida bog‘lanishli nutq o‘stirish metodikasi)** | 60 | 80 | 140 |

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarni Ona tilini o‘qitish metodikasining nazariy masalalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, ona tili didaktikasi va metodikasi haqida ma’lumot berish hamda ona tilini o‘quv predmeti sifatida qanday o‘qitish kerakligiga oid kasbiy kompetentlikni shakllantirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, ona tilini o‘qitish metodikasining nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fanni o‘qitishning vazifasi – talabalarni ona tilini o‘qitish nazariyasi va amaliyotiga oid bilim berish, nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay bilishga o‘rgatish va pirovardida ularni amaliy tilshunoslik, mantiq, pedagogika, psixologiya, fiziologiya sohalari bilan munosabatlarini bilish, fanlararo integratsiyaga asoslangan til ta’limini tashkil qilish va o‘qitishga oid ona tili ta’limi jarayoniga tayyorlashdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-modul. Ona tilini o‘qitishning umumiy masalalari**

1-mavzu. Ona tili ta’limi jarayonini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslari.

“Ona tilini o‘qitish metodikasi” fanining maqsad va vazifalari. Ona tilini o‘qitish metodikasi fanining tarixiy shakllanishi, rivojlanishi. Ona tili o‘qitish metodikasining tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari. Ona tilini o‘qitish metodikasi fanining boshqa

fanlar (falsafa, mantiq, pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, adabiyot) bilan aloqadorligi. Ona tilini o‘qitishga doir yondashuv va tamoyillar. Ona tili o‘qitishning umumdidaktik va o‘ziga xos tamoyillari.

2-mavzu. Ona tilini o‘qitishdagi yondashuvlar. Til o‘qitishdagi yondashuvlar, tarixi rivojlanishi yutuq va kamchiliklari. Til o‘qitishdagi yondashuvlarning ona tilini o‘qitishga xoslanishi. Ona tilini o‘qitishning maqsadi va vazifalari. Ona tili darslarining tuzilishi. Ona tilini o‘qitish metodlari tasnifi, turlari va mazmuni.

3-mavzu. Til ta’limi muhitini yaratish. Til ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalar. Ona tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar. Innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilingan darslarda kafolatlangan natijaga erishish omillari. Rivojlangan xorijiy davlatlar ta’lim tizimida ona tilini o‘qitish tajribasi, metodlari va ulardan foydalanish. Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi

4-mavzu. Ona tili ta’limi vositalari. Ona tilidan uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti mazmuni. Ona tili ta’limi orqali o‘quvchilarning tayanch, lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari. Nutqiy kompetensiyalar: tinglab tushunish, o‘qish, gapirish yozish. Lingvistik kompetensiyalar: fonetik, leksik, grammatik va ta’lim bosqichlari uzviylashtirilgan DTSda ularga qo‘yiladigan talablar.

5-mavzu. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Ona tili” darsliklarining tuzilishi va mazmuni. Akademik litsey “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklarining o‘ziga xos xususiyatlari. O‘quv va metodik qo‘llanmalar haqida ma’lumot. Lug‘atlar, qomuslar, axborot-ma’lumot manbalari va ulardan foydalanish usullari. Ona tili o‘qituvchisi faoliyatida qo‘llaniladigan hujjatlar.

**2-modul. Ona tili ta’limida nutqiy malakalarni shakllantirish metodikasi**

1-mavzu. O‘quvchilarda o‘qib, eshitib tushunish, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishning psixolingvistik va lingvodidaktik asoslari.

2-mavzu. 5–6- sinflarda ona tili darslarini tashkil qilish metodikasi. Ta’lim mazmuni, yondashuv va tamoyillar, bog‘lanishli nutq, imloviy savodxonlikni oshirish usullari, ta’lim vositalari.

3-mavzu. 7–8- sinflarda ona tili darslarini tashkil qilish metodikasi. Ta’lim mazmuni, yondashuv va tamoyillar, ta’lim vositalari, nutqiy malakani shakllantirish usullari.

4-mavzu. 9–10- sinflarda ona tili darslarini tashkil qilish metodikasi. Ta’lim mazmuni, yondashuv va tamoyillar, nutqiy malakalarni shakllantirish usullari.

5-mavzu. 10–11- sinf va o‘rta maxsus ta’limda ona tili darslarini tashkil qilish metodikasi. Ta’lim mazmuni, yondashuv va tamoyillar, tilning ifoda imkoniyatlarini egallash malakasini shakllantirish usullari.

**3-modul. Ona tili ta’limida nutqiy malakalarni baholash mazmuni, shakllari va mezonlari**

1-mavzu. O‘qib va eshitib tushunish malakasini baholash mazmuni, shakli, vositalari va mezonlari.

2-mavzu. Og‘zaki nutq malakasini baholash mazmuni, shakli, vositalari va mezonlari.

3-mavzu. Yozma nutq malakasini baholash mazmuni, shakli, vositalari va

mezonlari.

4-mavzu. O‘quvchilar bilimini nazorat qilishda qo‘llaniladigan texnologiyalar. Test, testlarning turlari va ularni tashkil qilish texnologiyasi.

5-mavzu. O‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlari (PISA)ga tayyorlash mazmuni, shakli, vositalari va mezonlari

**III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar (Mustaqil ta’lim) o‘quv rejada ko‘rsatilgan turi (nomi) bo‘yicha yoziladi)**

**1-modul. Ona tilini o‘qitishning umumiy masalalari**

**Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Ona tilini o‘qitish metodikasi mustaqil fan sifatida
2. Ona tilini o‘qitishga doir yondashuv va tamoyillar
3. Rivojlangan xorijiy davlatlar ta’lim tizimida ona tilini o‘qitish tajribasi, metodlari va ulardan foydalanish
4. Ona tili fani bo‘yicha uzluksiz ta’limning Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari mazmuni
5. Kommunikativ yondashuvning afzal jihatlari

**Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Ona tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan huquqiy va me’yoriy hujjatlar
2. Ona tilining o‘qitilishining tarixiy taraqqiyoti
3. Ona tilini o‘qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi
4. Ona tili o‘qitish metodikasining tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari.
5. Ona tili o‘qituvchisi va unga qo‘yiladigan kasbiy talablar
6. Til o‘qitishdagi yondashuvlarning ona tilini o‘qitishga xoslanishi
7. Ona tili darslarida qo‘llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar
8. Ona tili darslarida qo‘llaniladigan axborot – kommunikatsiya texnologiyalari
9. Ona tilini o‘qitishda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi
10. Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi
11. Ona tilidan uzviylashtirilgan DTS va o‘quv dasturi mazmuni
12. Ona tili ta’limi orqali o‘quvchilarning tayanch, lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari
13. O‘quvchilarda predmetga oid kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillari
14. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Ona tili” va AL “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklarining tuzilishi va mazmuni
15. O‘quv va metodik qo‘llanmalar, lug‘atlar, qomuslar, axborot-ma’lumot manbalari va ulardan foydalanish usullari
16. Ona tili o‘qituvchisi faoliyatida qo‘llaniladigan hujjatlar

**Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Ona tilini o‘qitishda qo‘llanadigan zamonaviy metodlar
2. Til o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va ularni tatbiq qilish usullari
3. Ona tilidan o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish mazmuni

**2-modul. Ona tili ta’limida nutqiy malakalarni shakllantirish metodikasi**

**Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

| | |
|---|---|
| | 1. O‘quvchilarda o‘qib va eshitib tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish mazmuni<br>2. O‘quvchilarda og‘zaki nutq ko‘nikmasini shakllantirish mazmuni<br>3. O‘quvchilarda yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirish mazmuni<br>4. O‘quvchilarga lingvistik ko‘nikmalarni shakllantirish mazmuni<br>5. Milliy o‘quv dasturi asosida ona tili darslarini tashkil qilish mazmuni<br>**Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**<br>1. O‘quvchilarni adabiy talaffuzga tayyorlash mazmuni va usullari<br>2. Imlo qoidalari bilan ishlash usullari<br>3. O‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish imkoniyatlari<br>4. Ona tili darslarida rasmiy ish qog‘ozlari bilan ishlash mazmuni<br>5. Iboralarni o‘qitish orqali ona tilining ifoda imkoniyatlarini ochib berish usullari<br>6. O‘quv lug‘atlaridan foydalanish mazmuni<br>7. Punktuatsion savodxonlikni oshirish usullari<br>8. Ona tili darslarida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish usullari<br>9. Ona tili darslarida fanlararo integratsiyani ta’minlash imkoniyatlari<br>10. 5- sinf Ona tili darslarini tashkil qilish mazmuni, usul va vositalari<br>11. 6- sinf Ona tili darslarini tashkil qilish mazmuni, usul va vositalari<br>12. 7- sinf Ona tili darslarini tashkil qilish mazmuni, usul va vositalari<br>13. 8- sinf Ona tili darslarini tashkil qilish mazmuni, usul va vositalari<br>14. 9- sinf Ona tili darslarining mazmuni, grammatik savodxonlikni oshirish usullari<br>15. 10- sinf Ona tili darslarida tilning ifoda imkoniyatlarini egallash malakasini shakllantirish usullari<br>16. 11- sinf Ona tili hamda o‘rta maxsus ta’limda Hozirgi o‘zbek adabiy tili tilning ifoda imkoniyatlarini egallash malakasini shakllantirish usullari<br>17. Ona tili fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish usullari<br>**Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**<br>1. 5–6- sinflar uchun ona tili fanidan videomaterial tayyorlash<br>2. 7–9- sinflar uchun ona tili fanidan didaktik materiallar tayyorlash<br>3. Yuqori sinflar uchun ona tili fanidan didaktik materiallar tayyorlash<br>**3-modul. Ona tili ta’limida nutqiy malakalarni baholash mazmuni, shakllari va mezonlari**<br>**Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**<br>1. O‘quvchilarning o‘qib va eshitib tushunish malakasini baholashda material tanlash tamoyillari<br>2. O‘quvchilarning og‘zaki nutq malakasini baholashda kommunikativ yondashuvni qo‘llash<br>3. O‘quvchilarning yozma nutq malakasini baholashda yozma ish turlarini tanlash mazmuni<br>4. O‘quvchilarda turli uslubdagi matnlarni yaratish ko‘nikmasini shakllantirish va nazorat qilish mezonlari<br>5. O‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlari (PISA)ga tayyorlash metodikasi |

**Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. O‘quvchilarda sodda gaplarga oid tushunchalarni faollashtirish
2. Gap bo‘laklarining kontekstdagi o‘rnini aniqlash usullarini o‘rgatish
3. Gapni to‘ldiruvchi bo‘laklarni aniqlash usullari
4. Qo‘shma gaplarning kontekstdagi o‘rnini aniqlash usullari
5. Nutq uslublarini farqlashga oid usullar
6. Turli tipdagi matnlar bilan ishlash usullari
7. Turli tipdagi matnlarni o‘qib va eshitib tushunish mashqlari ustida ishlash
8. Nutq uslublarini o‘qitish orqali o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish metodikasi
9. O‘quvchilarni matn tahririga tayyorlash usullari
10. Yozma ish va uning turlari
11. Ta’limiy diktantlar: ta’kidiy, izohli, erkin, saylanma, ijodiy, lug‘at v.h.k.
12. Nazorat diktantlari va ularni o‘tkazish metodikasi
13. Bayon va uning turlari: ta’limiy va nazorat.
14. Insholarning mazmun-mohiyatiga ko‘ra turlari: adabiy, ilmiy va erkin insholar.
15. Ona tili darslarida o‘quvchilarni esse yozish jarayoniga tayyorlash
16. O‘quvchilar bilimini nazorat qilishda test tuzish mezonlari

**Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. O‘qib tushunish ko‘nikmalarini baholash instrumentlari va indikatorlari
2. Eshitib tushunish ko‘nikmalarini baholash instrumentlari va indikatorlari
3. Og‘zaki nutq ko‘nikmasini baholash instrumentlari va indikatorlari
4. Yozma nutq ko‘nikmasini baholash instrumentlari va indikatorlari

Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada yoki online shaklda bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mashg‘ulot tabiatiga mos ravishda tegishli pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Fan bo‘yicha kurs ishi**

Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Ma’ruza mashg‘ulotlarida egallangan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, talabalarni ilmiy-nazariy qarashlar asosida umumlashma xulosalar chiqara olishga o‘rgatish, ularning ijodiy tafakkurini o‘stirish, ilmiy izlanishlar olib borish ko‘nikmasini shakllantirish, fikrni izchil va ifodali bayon eta olishga o‘rgatish fan bo‘yicha tashkil etiladigan kurs ishlarining bosh maqsadi hisoblanadi.

Mazkur fan yuzasidan yoziladigan kurs ishi talabalarni ilmiy-ijodiy ishga yo‘naltiruvchi amaliy faoliyat turi sifatida muhim ahamiyatga ega. Talaba kurs ishini yozish asosida keyinchalik yirikroq tadqiqot ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko‘radi. Shuningdek, fan bo‘yicha tashkil etiladigan kurs ishlari talabalarni ta’limning yuqori bosqichida bitiruv malakaviy ishini yozishga tayyorlab boradi.

**V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

| | |
|---|---|
| | Mustaqil ishni tayyorlashda fan xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:<br>amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik;<br>laboratoriya mashg‘ulotlariga tayyorgarlik;<br>darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;<br>maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;<br>o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzularini chuqur o‘rganish;<br>“Til va adabiyot ta’limi”, “Xalq ta’limi” kabi sohaga oid ilmiy jurnallardagi maqolalar bilan tanishish va tezislar tayyorlab borish;<br>ona tilini o‘qitishga oid kichik tajribaviy tadqiqotlar olib borish. |
| . | **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:<br>– ona tili ta’limi jarayonini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslari; ona tilini o‘qitish tarixi, rivojlanishi, fanning obyekti va subyekti; “Ona tilini o‘qitish metodikasi”ning tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari, boshqa fanlar bilan aloqasi; ona tilini o‘qitishga doir yondashuv va tamoyillar; ona tilini o‘qitish metodlari; ona tilidan dars turlari va unda qo‘llanadigan innovatsion texnologiyalar; til bo‘limlarini o‘qitishdagi o‘ziga xos yondashuvlar haqidagi **bilimlarga**;<br>– ona tili darslarini loyihalashtirish va tashkil etish, ona tili ta’limi mazmuni, bu fanlarni o‘qitishda uning qismlari, boblariga xos xususiyatlarini tahlil qila olish, ona tili ta’limida an’anaviy va noan’anaviy dars shakllarini qo‘llash, o‘quvchilar o‘quv-biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan dars usullaridan foydalanish **ko‘nikmalariga**;<br>– o‘quv ishlarini loyihalashtirish; darsdan tashqari mashg‘ulotlarni aniq va maqsadli tashkil eta olish; o‘z shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashtirish **malakalariga ega bo‘lishi lozim**. |
| | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish. |
| | **1-modul. Ona tilini o‘qitishning umumiy masalalari**<br>**Asosiy adabiyotlar:**<br>1. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010. |

2. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tilini o‘qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiyalar, 2012.
3. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. – T: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.

**Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. 2019-yil, 29-aprel.
2. Xolmanova Z., Yusupova T. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi tinglovchilari uchun o‘quv qo‘llanma). – T.: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2019.
3. Мавлонова К.М. Она тили дарсларида бадиий матннинг тил хусусиятларини интеграциялаш асосида ўрганиш методикаси. Монография. – Тошкент: Mashhur-press, 2016. – 252 б.
4. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo‘raboyeva Z. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / To‘ldirilgan 4-nashri. – T.: Ma’naviyat, 2015. – 224 b.
5. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 6-sinfi uchun. – T.: Tasvir, 2017. – 208 b.
6. Mahmudov N. va boshq. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 7-sinfi ucnun darslik / To‘ldirilgan va qayta ishlangan 3-nashr. – T.: Ma’naviyat, 2017. – 160 b.
7. Qodirov M. va.b. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019. – 144 b.
8. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir, 2010. – 128 b.
9. Mengliyev B.v.b. Ona tili. – T.: O‘qituvchi, 2020. – 96 b.
10. Mahmudov N.v.b. Ona tili. O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 112 b.

**Elektron ta’lim resurslari:**

http://uza.uz/oz/documents/alisher-navoiy-nomidagi-toshkent-davlat-zbek-tili-va-adabiye-13-05-2016
http://navoiy-uni.uz/uz-l/content/ozbek-tili-va-adabiyoti-boyicha-malakali-mutaxassislar-tayyorlashning-yangicha-tamoyillari
http://ziyonet.uz/ru
https://www.uzedu.uz/ru/tatil-pajtida-bilim-olis-ucun-aratilgan-resurslar
http://library.ziyonet.uz/uz/book/index?Book%5Blevel_id%5D=1&Book%5Btype_id%5D=&Book%5Bcategory_id%5D=18&Book%5Btitle%5D=&Book%5Bdescription%5D=&Book%5Blanguage_id%5D=1&yt0=%D0%9D%D0%B0%D0%B9%D1%82%D0%B8
https://tilvaadabiyot.uz/
https://xt.uzedu.uz/Account/Login

## 2-modul. Ona tili bo‘limlarini o‘qitish orqali nutq o‘stirish metodikasi

### Asosiy adabiyotlar:


1. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
2. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tilini o‘qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiyalar, 2012.
3. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. – T: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.


### Qo‘shimcha adabiyotlar:


1. Xolmanova Z., Yusupova T. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi tinglovchilari uchun o‘quv qo‘llanma). – T.: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2019.

2. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo‘raboyeva Z. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / To‘ldirilgan 4-nashri. – T.: Ma’naviyat, 2015. – 224 b.

3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 6-sinfi uchun. – T.: Tasvir, 2017. – 208 b.

4. Mahmudov N. va boshq. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 7-sinfi ucnun darslik / To‘ldirilgan va qayta ishlangan 3-nashr. – T.: Ma’naviyat, 2017. – 160 b.

5. Qodirov M. va.b. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019. – 144 b.

6. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir, 2010. – 128 b.


### Elektron ta’lim resurslari:

http://uza.uz/oz/documents/alisher-navoiy-nomidagi-toshkent-davlat-zbek-tili-va-adabiye-13-05-2016
http://navoiy-uni.uz/uz-l/content/ozbek-tili-va-adabiyoti-boyicha-malakali-mutaxassislar-tayyorlashning-yangicha-tamoyillari
http://ziyonet.uz/ru
https://www.uzedu.uz/ru/tatil-pajtida-bilim-olis-ucun-aratilgan-resurslar
http://library.ziyonet.uz/uz/book/index?Book%5Blevel_id%5D=1&Book%5Btype_id%5D=&Book%5Bcategory_id%5D=18&Book%5Btitle%5D=&Book%5Bdescription%5D=&Book%5Blanguage_id%5D=1&yt0=%D0%9D%D0%B0%D0%B9%D1%82%D0%B8
https://tilvaadabiyot.uz/
https://xt.uzedu.uz/Account/Login
http://www.hasanboy.uz/
https://aim.uz/
https://www.youtube.com/watch?v=pL_Jc9jQJ2w
https://www.youtube.com/watch?v=Qadml3-QxYYhttps://www.youtube.com/watch?v=6XunnZUh670
https://www.youtube.com/watch?v=Q2Tj-RQREC8
https://www.youtube.com/watch?v=O-pWQGQQwFA
https://www.youtube.com/watch?v=S9VOIrhXr8c

https://www.youtube.com/watch?v=53q8_AH4j10
https://www.youtube.com/watch?v=vCbmWjzGJe4

**3-modul. Ona tili darslarida bog‘lanishli nutq o‘stirish metodikasi**

**Asosiy adabiyotlar:**


1. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
2. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tilini o‘qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiyalar, 2012.
3. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. – T: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.
4. Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z., Toshmirzayeva Sh., Ziyodullayeva G., Shamsiyeva M. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.


**Qo‘shimcha adabiyotlar:**


1. Xolmanova Z., Yusupova T. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi tinglovchilari uchun o‘quv qo‘llanma). – T.: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2019.
2. Qodirov M. va.b. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019. – 144 b.
3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir, 2010. – 128 b.
4. Mengliyev B.v.b. Ona tili. – T.: O‘qituvchi, 2020. – 96 b.
5. Mahmudov N.v.b. Ona tili. O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 112 b.
6. Йўлдошев Р.А, Рихсиева М.М. Иншолардаги матний хатолар, уларни тузатиш методикаси. –Тошкент, 2018.


**Elektron ta’lim resurslari:**

https://tilvaadabiyot.uz/
https://xt.uzedu.uz/Account/Login
http://www.hasanboy.uz/
https://aim.uz/
https://www.youtube.com/watch?v=O-pWQGQQwFA
https://www.youtube.com/watch?v=S9VOIrhXr8c
https://www.youtube.com/watch?v=53q8_AH4j10
https://www.youtube.com/watch?v=vCbmWjzGJe4
https://www.youtube.com/watch?v=eo-2p5XyyK0
https://www.youtube.com/watch?v=SC1ECYd5qn4
https://www.youtube.com/watch?v=ULXozLvok_A&list=PLVAxCdl7uVYoUJ3SQ1nmofyvIutce5HS https://www.youtube.com/watch?v=IrVJj-nf7BU https://www.youtube.com/watch?v=1i2lBh2Gy5I

| | |
|---|---|
| | Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 202__ -yil “___”_________ dagi ____ -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br>O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 202__ -yil “___” _____dagi ______ - sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan. |
| | **Fan uchun mas’ullar:**<br>**K.M.Mavlonova** − Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika” kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)<br>**T.A.Yusupova** − Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi<br>**I.A.Azimova** − Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi |
| | **Taqrizchilar:**<br>**M.K.Hakimova –** ToshDO‘TAU dots.v.b., filologiya fanlari doktori<br>**G‘.H.Hamroyev –** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |

Лойиҳа